

6. Solova, O. A. (2010). Developing Written Speech in Schoolchildren: Methodological Recommendations. Moscow: Binom.
7. Rozental, D. E. (2002). Russian Language: A Handbook on Styles and Types of Speech. Moscow: Russkiy Yazyk.

INGLIZ TILINI O'RGANISHNING SAMARALI YO'LLARI VA FOYDALI JIHATLARI

*Musurmonova Dilnavo Fayozovna,
Student of Chirchiq State Pedagogical University,
Tourism Faculty*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilni qanday o'rganish, undan turli xil usullarda va texnologiyalardan foydalanish hamda amaliy gapirish mashqlari kabi turli metodlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning tilni mukammal o'zlashtirishga, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga va kognitiv qobiliyatlarni oshirishga qanday hissa qo'shishi tushuntiriladi. Bundan tashqari, ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va izchillik tahlil qilinadi. Maqolada ingliz tilini o'rganishning afzalliklari, jumladan, yaxshiroq kasbiy imkoniyatlar, akademik muvaffaqiyat va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ta'siri ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Onlayn ta'lim, texnologiyadan foydalanish samaradorligi, ingliz tili ko'nikmalari, gapirish ko'nikmalari, motivatsiya, akademik muvaffaqiyat.

Kirish

Bugungi globallashtirilgan dunyoda ingliz tilini o'rganish akademik muvaffaqiyat, kasbiy rivojlanish va samarali muloqot uchun zaruratga aylangan. Dunyoning eng ko'p qo'llaniladigan tillaridan biri sifatida ingliz tili turli sohalarda insonlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu tilni mukammal o'zlashtirish samarali o'rganish strategiyalari, to'g'ri o'qitish yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasini talab qiladi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning eng samarali usullari va uning asosiy foydalari yoritiladi. Til o'zlashtirish jarayonida texnologiyalarning roli, jumladan onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual ta'lim vositalaridan foydalanish muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada o'qituvchining talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish va ularni motivatsiya qilishdagi roli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, to'rtta asosiy til ko'nikmalarini – gapirish, tinglash, o'qish va yozishni rivojlantirish bo'yicha amaliy metodlar bayon etiladi. Nihoyat, ingliz tilini o'rganishning kasbiy imkoniyatlarni oshirish, akademik yutuqlarga erishish va madaniy tushunchalarni kengaytirish kabi afzalliklari ko'rib chiqiladi. Ushbu usullarni tushunib, amaliyotga tatbiq etish orqali o'rganuvchilar ingliz tilini muvaffaqiyatli egallashlari va professional hamda shaxsiy hayotlarida o'z salohiyatlarini to'liq namoyon eta olishlari mumkin.

Ingliz tilini o'rganishning umumiy foydalari va motivatsiya

1. Kasbiy va akademik imkoniyatlar:

- Ingliz tilini o'rganish xalqaro mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga kirish imkoniyatlarini beradi. Masalan, global kompaniyalarda ishlash imkoniyati va asosan xorijiy tashkilotlarga ishga kirish uchun ingliz tili talab etiladi.

- Xorijiy universitetlarda o'qish va grant dasturlarida qatnashish imkoniyati. Masalan, ingliz tilini bilish orqali IELTS, TOEFL kabi sertifikatlar olib dunyoning nufuzli universitetlariga kirish mumkin. Bundan tashqari, Ingliz tilini o'rganish talabalar uchun kelajakdagi mehnat hayotida ko'proq imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Ular yaxshiroq tayyorgarlikka ega bo'lishadi va yaxshiroq kasbiy tanlovlarga ega bo'lishadi. Bugungi kunda ko'pgina ish takliflarida ingliz tilini bilish muhim talabga aylangan, shuning uchun bolalar uni qanchalik erta o'rganishni boshlasalar, kelajakda shunchalik yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lalilar[1].

- Kasbiy rivojlanish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlari. Xorijiy mutaxassislar bilan muloqot qilish, guruh bilan tajriba almashish osonlashadi va hamkorlikda ishlash bu tilni o'rganishga foyda beradi. Hamkorlikda o'rganish (bundan keyin CL-Cooperative Learning deb yuritiladi) – bu o'quvchilarning akademik vazifalar ustida ishlashga rag'batlantiriladigan o'qitish usullari to'plami sifatida ta'riflanadi. Bu, shuningdek, ma'lum bir faoliyat bo'yicha o'quvchilar guruhlarida ishlashlari va bir-birining o'rganish jarayonini maksimal darajada oshirish hamda ma'lum maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan o'qitish texnikasi hisoblanadi [2].

2. Bu tilni o'rganishda motivatsiyaning ahamiyati:

- O'rganish jarayonida o'quvchi zavqlanishi va tilni o'zlashtirishga bo'lgan shaxsiy qiziqishi bo'lgan.
- O'ziga nisbatan imtihonlardan muvaffaqiyatli o'ta olishni his qilish va hokazo.

Tilni o'rganishda internetdan to'g'ri foydalanish va foydali jihatlari

Internet deganda biz asosan ommamiy axborot vositalari(social medialar, turli xil platformalar, ilovalar va hokazo) larni tushunamiz va bu tarmoq biz uchun tilni o'rganishda juda zarurdir. Chunki biz asosan ingliz tilini o'rganishda onlayn kurslar va platformalardan foydalanamiz; masalan, Duolingo, BBC learning English kabi saytlar orqali mustaqil o'rganish mumkin. You tube va podcastlardan foydalanish: taniqli o'qituvchilar va til mutaxassislarining darslarini bepul tomosha qilish ya'ni men asosan Lingua Barno, Teacher Azam, Liz va boshqa o'qituvchilarning darslarini o'rganishga harakat qilaman. Internetdan o'rganish jarayonida qo'shimcha vosita sifatida foydalanish talabalarining o'rganish natijalarini samarali ravishda yaxshilashi va talabalar ingliz tilini o'zlashtirishda o'z taraqqiyotlarini yaxshiroq nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot, talabalarga ingliz tilini o'rganishda internetdan foydalanishning foydalarini yanada chuqurroq o'rganishni maqsad qilgan bo'lib, texnologiyaning ta'lim sifatini yaxshilashdagi potentsialini maksimal darajada ishlatish uchun kerakli ijobiy jihatlarni aniqlashga qaratilgan[3].

Internet orqali til o'rganishning foydali jihatlari: erkin va qulay ta'lim olish mumkin, ya'ni har qanday vaqtda va joyda o'rganish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari xarajat jihatidan samaradorlik bor, masalan ko'plab bepul resurslar mavjudligi sababli qo'shimcha xarajat talab qilinmaydi va boshqa foydali jihatlari bor.

Ingliz tilini o'rganishda o'qituvchining roli

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, motivatsiya beruvchi va o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beruvchi shaxs hamdir. O'qituvchi o'quvchilarning ehtiyoj va o'rganish uslublarini aniqlab, mos usullarni qo'llashi kerak. Ayrim o'quvchilar grammatikaga asoslangan mashqlar orqali yaxshiroq o'rganishsa, boshqalari interaktiv faoliyatlar, muhokamalar va hayotiy vaziyatlarni jonlantirish orqali tilni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Chet tilini samarali o'rganish xotira bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, o'qituvchi o'quvchilarga o'zlashtirgan til materiallarini muvaffaqiyatli eslab qolish va xotirada

saqlashda qanday yordam berishni bilishi kerak. Bu yerda yana psixologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, psixolog P.K. Zinchenko o'rganish jarayonida ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiraning katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan. P.K. Zinchenko ixtiyorsiz xotirani o'rganish jarayonida shunday xulosaga kelgan: bu turdagi xotira o'ziga xos ahamiyatga ega. Shunday ekan, chet tilini o'qitishda ixtiyorsiz eslab qolish uchun qulay sharoit yaratish kerak[4]. Masalan, men abituriyentlik vaqtimda Ingliz tilini o'rganishni onam tavsiya bergan Nafosat Otaqulovadan o'rganishni boshlaganman va bu men uchun juda foydali bo'lgan. Chunki, o'qituvchim birinchi navbatda bu tilni o'rgatish uchun xotiramni yaxshilashdan boshlagan ya'ni juda ko'p podcastlar eshittirgan, qo'shiqlar yodlatgan va hokazo. O'qituvchining o'qitish-o'rganish jarayonidagi rollari ta'lim adabiyotlarida keng muhokama qilingan. Brown o'qituvchining asosiy rollaridan bir nechtasini quyidagicha bayon qilgan.

1. O'qituvchi menejer sifatida – O'qituvchi darslarni rejalashtiradi, o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatib boradi va sinf vaqtini samarali boshqaradi
2. O'qituvchi fasilitator (o'rganish jarayonini yengillashtiruvchi) sifatida – O'qituvchi o'quvchilarning o'rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va shu orqali til o'rganishni osonlashtiradi.
3. O'qituvchi resurs sifatida – Ushbu rol doirasida o'qituvchi kamroq rahbarlik qiladi va o'quvchilar mustaqil tashabbus ko'rsatib, o'qituvchidan maslahat va yo'riq olishadi. Bu o'qituvchining har doim o'quvchilarning savollariga javob berishga va ularga yordam ko'rsatishga tayyor bo'lishini talab qiladi[5].

Ingliz tilining to'rtta asosiy ko'nikmasini o'rganish metodlari

Bu usulda asosan speaking, writing, listening va reading skillari o'rganiladi.

1. Gapirish (Speaking)

Muloqotga asoslangan mashg'ulotlar va rolli o'yinlar

"Shadowing" usuli va talaffuzni yaxshilash texnikalari

Native speakerlar bilan muloqot qilish

Qisqa hikoyalar yoki monologlarni yozish va ularni gapirish

Online platformalardan foydalanish: Mana shunday qo'llanmalardan foydalanib ingliz tilining speaking skillini rivojlantirish mumkin.

2. Tinglash (Listening)

Audio kitoblar va podcastlardan foydalanish

Subtitrlar bilan va subtitrsiz filmlar ko'rish va tushunish

Qisqa dialoglar va suhbatlarni tinglash orqali tushunishni rivojlantirish

Tinglash va yozib olish

3. O'qish (Reading)

Graded readers (darajaga mos kitoblar) orqali o'qish

Kontekst orqali so'z ma'nolarini tushunish

Ilmiy va badiiy adabiyotlarni inglizchada o'qish

Samarali o'qish strategiyalari va texnikalari yangi tillarni o'rganishda muhim ko'nikmadir, bu ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish va ishlash kerak, chunki bu tilni o'rganishda yanada muvaffaqiyatli natijalarga erishishga yordam beradi[6].

4. Yozish (Writing)

Kundalik yuritish va insholar yozish

Grammatikani yozma mashqlar orqali mustahkamlash

Akademik yozuv ko'nikmalarini shakllantirish

Yozish muhim va odamlarning kundalik hayotida tez-tez ishlatiladi, bu individual tarzda, masalan, ariza xatlari, xabarlar yozish yoki tadqiqot natijalarini tarqatish kabi, yoki jamiyat a'zosi sifatida, masalan, ish joyida yuzaga keladigan masalalarda. Yozish, shuningdek, rasmiy ta'limda o'qitiladi, chunki yozish qobiliyati va yaxshi ko'nikmalarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega [7].

Natijalar:

Ushbu tadqiqot texnologiyalaridan foydalanish, o'qituvchi qo'llab-quvvatlovi va tuzilgan o'quv strategiyalarining ingliz tilini o'zlashtirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Onlayn resurslarni integratsiya qilish o'rganish natijalarini yaxshilaydi, motivatsiya va muntazam amaliyot esa ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Gapirish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini maqsadli usullar orqali rivojlantirish akademik va professional imkoniyatlarni oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Ingliz tilini samarali o'rganish texnologiya, o'qituvchi yordami va to'g'ri ta'lim uslublarini qo'llash bilan bog'liq. Onlayn ta'lim platformalari va zamonaviy vositalardan foydalanish o'quvchilarga til ko'nikmalarini tez va samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, motivatsiya va izchil amaliyot muvaffaqiyatning muhim omillari hisoblanadi. Gapirish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun to'g'ri metodlarni qo'llash o'quvchilarning akademik va kasbiy muvaffaqiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, har bir o'quvchi o'z ehtiyojlariga mos keluvchi ta'lim usullaridan foydalangan holda ingliz tilini o'rganishda yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Palomo Blázquez, Ana (Maestra. Especialidad en Lengua extranjera, Inglés, Maestra de Educación Primaria Bilingüe). Recibido 2018-11-29; Aceptado 2018-12-10; Publicado 2018-12-25; Código PD: 102156.
2. Rais Ahmed Attamimi ,Nasser Omer M. Al-Tamimi (Corresponding author) Dept. of English- College of Education- Seiyun Hadhramout University, Yemen .Published: August 10, 2014 doi:10.5296/ijl.v6i4.6114 URL:<http://dx.doi.org/10.5296/ijl.v6i4.6114>
3. Sinta Dewi Anggun. English Education Department, STKIP YPUP, Makassar, Indonesia Corresponding author, email: sintadewianggun@ypup.ac.id verba: Journal of English Language Issues, Trends and Studies; Vol. 1, No.3,10-17, 2023 .E-ISSN 2962-8652
4. Azizova Maxaram Rashitovna, Karimova Feruza Inoyatovna, Mirzayeva Nargizoy Sanjarovna Senior Teacher of Andijan Machine Building Institute. Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No:2581 - 4230 Volume 6, ISSUE 10, Oct. -2020 .
5. Shehdeh Fareh a *, Aziz Thabit Saeed . University of Sharjah POB 27272, Sharjah,009716, UAE .Procedia Social and Behavioral Sciences 15 (2011) 153–159 .WCES-2011.
6. Tojiboyev Isaqjon. Teacher at Fergana State University.<https://involta.uz/index.php/iv/issue/view/10>
7. Erna Eftanti .IAIN Tulungagung ,East Java.Lingua Scientia , Volume 8, Nomor 1,Junior 2016